Emro Science and Education
International open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 4 (2024) · “Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish va yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlarini t... DOI: 10.5281/zenodo.24320932

ta’minlashning ustivor yo‘nalishlari” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

o‘rin tutadi. Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari sonining oshishi, ishsizlik darajasini sezilarli darajada kamaytirib, bandlikni oshirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Bu natijalar kichik biznesni rivojlantirish bo‘yicha davlat siyosatini kuchaytirishning iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tadbirkorlik subyektlarining aholi daromadlari o‘sish sur’atlariga ta’siri ancha past bo‘lib, daromadlarning o‘sishini ta’minlash uchun qo‘shimcha chora-tadbirlar zarurligini ko‘rsatadi. Bu ta’sirni oshirish uchun iqtisodiyotda texnologik modernizatsiya, ta’lim tizimini rivojlantirish va tadbirkorlik muhitini yanada qulaylashtirish muhim omil bo‘lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

[1] Solow, R. M. (1956). "A Contribution to the Theory of Economic Growth"

[2] Schumpeter, J. A. (1934). "The Theory of Economic Development"

[3] World Bank Group (2020). "Doing Business Report"

[4] Beck, T., Demirgüç-Kunt, A., & Levine, R. (2005). "SMEs, Growth, and Poverty"

[5] United Nations Development Programme (UNDP) (2021). "Sustainable Development Goals (SDGs)"

[6] Abdusalim Shavkatov, Khalilov.A. Forecasting GDP Per Capita (Current Prices) As A Result Of Inflationary Effects In Case Of Uzbekistan.

[7] A Dilafruz, A Shavkatov. Davlat korxonalarida korporativ boshqaruvni takomillashtirish strategiyalari.

## O‘ZBEKISTONDA KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA ISTE’MOL SAVATCHASINING AHAMIYATI

**Allayarova Mastura Kudratullayevna**
Guliston davlat universiteti, Iqtisodiyot kafedrasi katta o‘qituvchisi
**Ergashev Javohir Jahongir o‘g‘li**
Gulistn davlat universiteti, Iqtisodiyot yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

**Annotatsiya**: Ushbu maqola O‘zbekiston Respublikasi aholisining turmush darajasini baholash, turmush farovonligini oshirish, aholi daromadlari va iste'mol harajatlari orasidagi bog‘liqliklarni o‘rganish va mavjud holatni tahlil qilish masalalariga bag‘ishlangan. Iste’mol savatchasining bugungi kundagi holati va davlat budjetining bunga tayyorligi statistik ma’lumotlar asosida ko‘rib chiqilgan. Iste’mol savatchasi, yashash minimumi va kambag‘allik darajasini aniqlash bo‘yicha taklif va xulosalar berilgan.

**Kalit so‘zlar:** Iste’mol savatchasi, MHTEKM (mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori), pensiya va nafaqalar, yashash minimum, ishsizlik va integratsiyalashuv, ehtiyoj va daromad.

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlarning tub zamirida eng avvalo inson qadri va farovonligi turibdi. Jahon hamjamiyati bilan munosib integratsiyalashuv jarayonida aholining kundalik turmush tarzini yaxshilash asosiy maqsad hisoblanadi. Mustaqillikka erishganimizga 33 yil bo‘lgan bo‘lsada hamon iste’mol savatchasi tizimi joriy etilmagan. Prezidentimizning Oliy Majlisga yuborgan murojaatnomalarining barchasida aholining munosib hayot kechirishi masalasi alohida e’tiborga olinadi.

**Tadqiqot metadologiyasi**

Ushbu tadqiqot ishida alohida kuzatish orqali aholini iste’molga bo‘lgan



Published: 23.12.2024

**Cite this article:** Allayarova Mastura Kudratullayevna, Ergashev Javohir Jahongir o‘g‘li (2024). O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishda iste’mol savatchasining ahamiyati. Emro Science and Education, 1(4). https://doi.org/10.5281/zenodo.24320932

*© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.*

talabini turli metodlar yordamida o‘rganildi. Maqolada ilmiy abstraksiyalash usuli yordamida iste’mol miqdoriga ta’sir etuvchi omillar, iste’mol savatchasining bugungi kundagi aholi daromadlariga mosligi, aholining bandligi va mehnat yoshidagi aholining daromadlari ilmiy va amaliy bashorat qilinadi. Shuningdek qiyosiy taqqoslash usuli yordamida jahonning rivojlangan davlatlaridagi aholining iste’moli va iste’mol savatchasining miqdori, uning shakllanish holati o‘rganilgan va yurtimizdagi joriy holat bilan solishtirib tegishli xulosalar shakllantirildi.

**Natija va muhokamalar**

Har bir davlat o‘zining iqtisodiy taraqqiy etishi mobaynida aholi turmush darajasi va sifatini yaxshilash, ijtimoiy muhofaza qilish tizimini takomillashtirish borasida izchil islohotlarni amalga oshirib boradi. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad insonlar uchun tobora rivojlanib borayotgan davriy taraqqiyotga mos ravishda munosib turmush sharoitlarini yaratib berishdan iborat. Dunyo mamlakatlarida aholini ijtimoiy muhofaza qilish tizimining o‘ziga xos kontseptsiyalari mavjud. Jumladan, bir qator davlatlarda aholining munosib hayot kechirishini ta’minlaydigan hamda huquqiy asoslar bilan mustahkamlangan “Yashash minimumi” ( inson tanasining normal ishlashini ta'minlash va uning sog‘lig‘ini, oziq-ovqat mahsulotlari to‘plamini, shuningdek, oziq-ovqat mahsulotlarining eng kam miqdorini va insonning asosiy ijtimoiy va madaniy ehtiyojlarini qondirish uchun zarur bo‘lgan minimal xizmatlar to‘plami) va “Iste’mol savatchasi” ( **Iste’mol savati** - muayyan vaqt (oy, yil) da iste’mol etiladigan mahsulotlar turi va to‘plamining oila yoki jon boshiga hisoblangan miqdori. Kishi yoki oila oylik (yillik) hisobiy tovarlar (xizmatlar) iste’molining tipik darajasi va tuzilmasini tavsiflaydi)ga mutanosib tarzda ta’minlab boriladi. Davlat tomonidan iste’mol savatchasini amalga joriy etilishi hamda uni qonuniy asoslar bilan mustahkamlab qo‘yilishi insonlar uchun muhim ijtimoiy ahamiyatga ega. Chunki, bu amalda belgilab qo‘yilgan ish haqi, pensiya, ijtimoiy nafaqa va boshqa to‘lovlar miqdorini real hayotiy ehtiyojlardan kelib chiqqan holda belgilanishini ta’minlaydi. Iste’mol savatchasi aholining 3 ta asosiy ijtimoiy-demografik guruhi, ya’ni mehnatga layoqatli aholi, pensionerlar va bolalar uchun joriy qilinadi. Aholining turli qatlamlari (yoshi, jinsi) yashashi uchun zarur bo‘lgan ehtiyojlarining eng kam miqdorini belgilashda muayyan davrdagi (bir kunlik, bir oylik, bir yillik) normalari aniqlanadi. Masalan, bir kishi normal hayot kechirishi uchun bir kunda yoki bir oyda iste’mol qilishi lozim bo‘lgan oziq-ovqat mahsulotlari to‘plami va miqdori, shuningdek, barcha kommunal xarajatlarni qoplashi uchun oyiga qancha summa zarurligi hisoblab chiqiladi. Bunda iste’mol savatchasi tarkibiga inson ularsiz bamaylixotir, sog‘lom yashashi mumkin bo‘lgan tovarlar kiritilmaydi. Ammo ayrim mamlakatlar o‘zining iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda biz inobatga olmayotgan ayrim turdagi tovar va mahsulotlarni ham savatcha tarkibiga kiritgan. Masalan, ba’zi rivojlangan davlatlarda tamaki, benzin kabilar ham iste’mol savatchasi tarkibidan joy olgan. Bunga sabab mamlakatda ushbu tovarlarga nisbatan talabning kuchli va ko‘pligi asosiy sababdir.

Bugungi kunda yurtimiz aholisining katta qismi yoshlar qatlamidan tashkil topganligi uchun, so`nggi yillarda oilalar a`zolarining soni kamayishi ro`y bermoqda. Shuning uchun komunal to`lovlar, soliq va boshqa majburiy yig`imlar uchun ajratilayotgan mablag`lar umumiy bo`lganligi uchun uy xo`jaliklari o`zida qolgan mablag`larni jamg`arishga harakat qiladi.

O`zbekistonda aholi yalpi daromadlarining o`zgarishi,ya’ni 2022-yil yanvar-sentabr oyidan 2023-yil yanvar-sentabr oyidagi yalpi daromad 10.7 foizga ko‘p hisoblanadi (454.9 trln so‘m). Iste’mol savatchasining tarkibi va qiymatini davriy taraqqiyotga mos tarzda mutanosibligini ta’minlab borish davlatlar uchun ma’lum iqtisodiy qiyinchiliklarni yuzaga keltirishi mumkin. Chunki, odatda, savatchani

belgilashda birinchi navbatda eng zarur turdagi ehtiyojlarning (oziq-ovqat, nooziq-ovqat, xizmatlar) minimal darajasidagi qiymati hisobga olinadi. Ammo, iste’mol savatchasi tarkibini tobora rivojlanib borayotgan inson ehtiyojlariga mos tarzda kengaytirib borishda ayrim turdagi qismlarini aniqlash va uni hayotiy zaruriyatidan kelib chiqqan holda qo‘shib borishda ba’zi muammolar yuzaga kelishi mumkin. Masalan, insonlar iste’mol qiladigan oziq-ovqat mahsulotlarining kunlik yoki bir oylik turi va miqdorini belgilashda aniq bir o‘lchamlarga ega bo‘lish mumkin. Ammo, xizmatlarning zarur to‘plamini aniqlash va uni amalda belgilash nisbatan murakkabroq. Chunki, aholi tirikchiligi uchun zarur eng kam miqdorni belgilashda birinchi navbatda kommunal va transport xarajatlari inobatga olinadi. Lekin, shuni unutmaslik kerakki, tobora rivojlanib borayotgan davrda xizmatlar ham inson uchun muhimlik darajasi va hayotiy zaruriyatiga qarab farqlanishi yoki ortib borishi mumkin.

Xususan, inson hayot faoliyati davomida dolzarbligi jihatidan bir qator muhim xizmat ko‘rsatish turlaridan (uyali aloqa, internetdan foydalanish, tibbiy yordam, turli mutaxassislar maslahatlarini olish) faol foydalanadi. Shuningdek, madaniy-ma’rifiy tadbirlar ham muhim ahamiyatga egadir. Chunki, inson nafaqat moddiy, balki ma’naviy ehtiyojlarini ham yetarli darajada qondira olish imkoniyatiga ega bo‘lishi lozim. O‘zbekistonda mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan bir qator ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan chora-tadbirlar amalga oshirildi. Garchi, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 46-moddasida “Pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari rasman belgilangan eng kam iste’mol harajatlaridan oz bo‘lishi mumkin emas”ligi amalda belgilab qo‘yilgan bo‘lsada, insonlarning munosib hayot kechirishi uchun zarur daromadlar me’yoriniifodalaydigan “iste’mol savatchasi” va uning huquqiy asoslari qonunchilikda mustahkamlanmadi.

Mustaqillikning dastlabki yillaridagi iqtisodiy qiyinchiliklar nafaqat O‘zbekistonga, balki MDHning ko‘plab davlatlari uchun ham bir qator muammolarni keltirib chiqargan. Respublikamizda “yashash minimumi” yoki “iste’mol savatchasi”ning, garchi xuquqiy asoslari yaratilmagan bo‘lsada, amalda zarur turdagi iste’mol mahsulotlari imtiyozli dotatsiyalangan (tannarxi yoki import narxidan arzon) narxlarda aholiga yetkazib berildi (1995 yilgacha davlat tomonidan asosiy turdagi oziq-ovqat mahsulotari cheklangan chakana narxlarda ushlab turilgan). Bu kabi islohotlar murakkab iqtisodiy tanglik yillarida aholi moddiy ta’minotini minimal darajalarda bo‘lsa-da, ta’minlashda muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan.

O‘zbekistonda yashash minimumi va iste’mol savatchasi amalda qonun bilan mustahkamlanmaganligining asosiy omillari sifatida shuni ta’kidlash kerakki, dastlabki yillarda real iqtisodiy imkoniyatlarning bunga imkon bermasligi, shuningdek, ko‘plab turdagi iste’mol mahsulotlarini mahalliy ishlab chiqarishning yetarli darajada yo‘lga qo‘yilmaganligi sababli ularning aksariyati import evaziga ta’minlangan va bu davlat byudjeti uchun iqtisodiy qiyinchiliklarni keltirib chiqargan.

Mustaqillikning dastlabki yillaridagi iqtisodiy imkoniyatlarni inobatga olgan holda yashash minimumi va iste’mol savatchasi huquqiy asoslar bilan mustahkamlanmadi. Shuning uchun ham O‘zbekiston iqtisodiy imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ushbu masala, garchi huquqiy jihatdan mustahkamlab qo‘yilmagan bo‘lsada, amalda murakkab iqtisodiy sharoitda ham ko‘plab davlatlardan farqli ravishda mamlakat aholisi uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo‘lgan chora-tadbirlarni qo‘llab bordi.

Keyingi yillar davomida ham mamlakatda aholi turmush darajasini yaxshilashga qaratilgan bir qator islohotlar amalga oshirib borildi. Lekin, shunga qaramasdan yillar mobaynida aholining real daromadlari (MHTEKM, pensiya va turli nafaqalar) doimiy tarzda yashash minimumi, iste’mol savatchasiga mutanosibligi ta’minlanmadi.

Yashash minimumi va iste’mol savatchasini joriy etilishi va uni huquqiy asoslar bilan mustahkamlanishi aholi turmush darajasini oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirishda muhim ahamiyatga ega. Agar iste’mol savatchasi joriy etilmasa yoki kam ta’minlangan aholini kuchli ijtimoiy muhofaza qilish tizimini yanada kuchaytirib borilmasa, bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatda kambag‘allik darajasini ortib borishiga olib keladi.

O‘zbekistonda aholi umumiy daromadi 2023-yilga nisbatan 115 foizni tashkil qilsada , real o‘sish 104,6 foizni tashkil qildi. Bu, o‘z navbatida aholi moddiy ta’minotiga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Bu boradagi muammolarni bartaraf etish hamda aholi turmush darajasi va sifatini oshirishga so‘nggi yillar mobaynida davlat rahbari tomonidan alohida e’tibor qaratilib, aholining real daromadlari, ish haqi, pensiya, nafaqa va boshqa to‘lovlar miqdorini hududlar kesimida “yashash minimumi” va “iste’mol savatchasi”ga mutanosibligini ta’minlash va uning mexanizmlarini ishlab chiqish maqsadida Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari mas’ul ijrochilar etib tayinlandi. Ko‘plab davlatlarda aholining (eng kam ish haqi, pensiya va nafaqa oluvchilari) oylik ish haqi xarajatlarining oziq-ovqat mahsulotlariga sarfi 50 %ni (iste’mol savatchasi huquqiy asoslar bilan belgilab qo‘yilgan davlatlarda aholining oziq-ovqat mahsulotlariga xarajatlari oylik maoshlarining 40, 50, 55, 60 %gachasini tashkil etishi belgilab qo‘yilgan) tashkil etishini inobatga olinsa, O‘zbekistonda eng kam oylik ish haqining 50 %ini oziq-ovqat mahsulotlariga sarflanishi uchun mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdorini 2020 yil fevral oyi holatidan teng barobarga oshirish lozimligini ko‘rsatadi.

Aholi moddiy ta’minoti tahlili shuni ko‘rsatadiki, sovet davrida olib borilgan markazlashgan rejali iqtisodiyot tizimi uning tartib-qoidalari va mexanizmlari amalda barqaror iqtisodiy taraqqiyotni ta’minlay olmadi. Sarf-xarajati cheksiz bo‘lgan sovet iqtisodiyotida aholining minimal ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan ishlab chiqarishdagi nomutanosibliklar hamda yildan-yilga ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda o‘z yechimini kutayotgan o‘tkir muammolarning ortib borishi oxir-oqibat iqtisodiy tanglikni inqirozni keltirib chiqardi.

**Jadval. Dunyoning ayrim davlatlarida soliq yukining o‘rtacha darajasi (foizda)**

| Davlatlar nomi | Umumiy soliq yuki (foizda) | O‘zbekiston soliq yukining qiyosiy darajasi |
|---|---|---|
| AQSH | 35 | 8% past |
| Rossiya | 42 | 15% past |
| Germaniya | 33 | 6% past |
| O‘zbekiston | 27 | x |

Bunda mahsulotlar narxi mavsumiy o‘zgarishlarga ega ekanligini ham hisobga olish lozim. Chunki, belgilangan ish haqi, pensiya va boshqa ijtimoiy nafaqalarning o‘sish sur’atlari iste’mol narxlarining o‘sishidan orqada qolmasligi kerak.

Yashash minimumi va iste’mol savatchasini joriy etilishi va uni huquqiy asoslar bilan mustahkamlanishi aholi turmush darajasini oshirish hamda kambag‘allikni qisqartirishda muhim ahamiyatga ega. Agar iste’mol savatchasi joriy etilmasa yoki kam ta’minlangan aholini kuchli ijtimoiy muhofaza qilish tizimini yanada kuchaytirib borilmasa, bozor iqtisodiyoti sharoitida mamlakatda kambag‘allik darajasini ortib borishiga olib keladi. Respublika Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2020 yil 24-yanvardagi Oliy Majlisga Murojaatnomasida O‘zbekiston tarixida birinchi marta ushbu

masalaga alohida to‘xtalib, kambag‘allikni qisqartirish ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Shundan kelib chiqqan holda, bu boradagi mavjud muammolarni bartaraf etishga qaratilgan hamda amaliy ahamiyatga ega bo‘lgan islohotlar olib borildi.

Tahlillarimiz ko‘rsatishicha, Respublikamizda kundalik iste’mol tovarlarining asosiy qismini aholining iste'mollarga bo‘lgan talabi tashkil etadi. Iste’mol tovarlari iqtisodiy kategoriya sifatida qishloq xo‘jaligi, iste’mol sanoati tarmoqlari, shuningdek, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini sotib olinishini va iste’molchilarga sotilishini tashkil etuvchi xo‘jaliklar o‘rtasidagi ayirboshlash munosabatlarining majmuasini aks ettiradi.

Iste’mol ko‘rsatkichlari to‘g‘risida umumiy xulosaga keladigan bo‘lsak buni joriy yildagi va o‘tgan yillardagi iste’mol ko‘rsatkichlari bilan fikrimizni dalilladik. Prezidentimiz rahbarligida iste’mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalar rivojiga keng yo‘l ochilgani ham aholi bandligining oshishi va daromadlari o‘sishida muhim omil bo‘lmoqda.

**Adabiyotlar:**

1.A.O‘lmasov, A.Vahobov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. TDIU, 2014.

2.Sh.Shodmonov , U . G‘afurov. Iqtisodiyot nazariyasi. Darslik. «Fan va texnologiyalar» nashriyoti, 2005.

3. www.gov.uz

4. www.lex.uz

5. www.stat.uz

## MAHALLIY BUDJET IJROSI HISOBITINI TUZISH VA ULARNING AXBOROT IMKONIYATLARINI OSHIRISH MASALALARI

**Suvonqulova Zarinabonu, Botirov Saidabror**
Guliston davlat universiteti " Rakamli iqtisodiyot va innovatsiyalar”fakulteti talabalari

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada mahalliy byudjetlarning ijrosi bo‘yicha hisobot tuzish va ularning axborot imkoniyatlarini oshirish masalalari tahlil qilingan. Mahalliy byudjetni samarali boshqarish uchun axborot texnologiyalaridan foydalanish, oshkoralikni ta'minlash va raqamli vositalarni joriy etish muhimligi ta'kidlanadi. Tahlilda O‘zbekistonning amaldagi qonunchilik asoslari va xalqaro tajribaga murojaat qilingan.

**Kalit so‘zlar:** davlat budjeti, tushum, yagona g‘azna hisobvarag‘i, bank hisobvaraqlari, daromad , xarajat, budjet tizimi, yuridik majburiyat, moliyaviy majburiyat.

**Kirish**

Mahalliy byudjetlar davlat moliyaviy tizimining ajralmas qismi bo‘lib, ular hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim rol o‘ynaydi. O‘zbekistonda mahalliy byudjetlarning oshkoraligini oshirish, ularning ijrosini tahlil qilish va axborot vositalaridan foydalanishni rivojlantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangan. Xususan, 2024-yil uchun qabul qilingan davlat byudjeti loyihasida mahalliy daromad bazasini kengaytirish va axborot texnologiyalarini joriy etish masalalari ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

So‘nggi yillarda mahalliy byudjetlarning ijrosi to‘g‘risida axborotning ochiqligi va jamoatchilikka taqdim etilishi talab qilinmoqda. Bu borada O‘zbekiston hukumati "E-Byudjet" platformasini rivojlantirish va hisobot tizimini avtomatlashtirish bo‘yicha ishlamoqda.

**Tahlil va natijalar**